

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

HAMRAYEVA Feruza Shodibek qizi*Sug'urta ishi kafedrası**dotsenti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.15483719>

MAJBURIY SUG'URTA TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

ANNOTATSIYA

Hozirgi davrda mamlakatlar rivojlanishining asosiy yo'nalishi bu ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot hisoblanadi. Bunda davlatning asosiy maqsadi ijtimoiy himoyalanmagan aholiga iqtisodiy himoyaning samarali mexanizmini taqdim qilishdan iboratdir. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan shunday xulosalar shakllantirilganki, buning yagona va samarali vositasi bu sug'urta institutidir.

Sug'urta aholi va xujalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy manfaatlarini iqtisodiy himoya qilishning eng samarali iqtisodiy vositasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy raqobat, sug'urta bozori, majburiy sug'urta, mamlakatning sug'urta tizimi, sug'urtalanuvchi, davlat shaxsiy sug'urtasi mexanizmi, Sug'urtalash shartlari, majburiy sug'urta.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВИДОВ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО СТРАХОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Основным направлением развития стран в современный период является социально ориентированная экономика. Основная цель государства - обеспечить эффективный механизм экономической защиты социально незащищенного населения. Результаты исследований, проведенных в разных странах, привели к выводу, что единственным и наиболее эффективным инструментом для этого является страховая организация.

Страхование является наиболее эффективным экономическим инструментом экономической защиты имущественных интересов населения и субъектов хозяйствования.

Ключевые слова: экономическая конкуренция, страховой рынок, обязательное страхование, страховая система страны, страхователи, механизм государственного личного страхования, условия страхования, обязательное страхование.

PROSPECTS FOR IMPROVING TYPES OF COMPULSORY INSURANCE

ANNOTATION

Currently, the main direction of development of countries is a socially oriented economy. In this case, the main goal of the state is to provide an effective mechanism of economic protection for the socially unprotected population. The results of research conducted in different countries have led to the conclusion that the only and effective tool for this is the insurance institution.

Insurance is the most effective economic tool for the economic protection of the property interests of the population and economic entities.

Key words: economic competition, insurance market, compulsory insurance, the country's insurance system, the insured, the mechanism of state personal insurance, Insurance conditions, compulsory insurance.

Kirish

Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida mamlakatlar xavf-xatarlarni boshqarish, fuqarolar va tashkilotlarni turli kelib chiqishi mumkin bo'lgan noxush holatlardan muhofaza qilish maqsadida sug'urta tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Sug'urta nafaqat shaxsiy manfaatlarni himoya qiladi, balki umummilliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, **majburiy sug'urta** turlari jamiyatda xavf-xatarlarni taqsimlash va ularning iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarining joriy etilishi va ularni amalga oshirish tizimi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, ushbu bozorni yanada samarali va barqaror rivojlantirish uchun huquqiy, institutsional va texnologik islohotlar talab etiladi. Shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida sug'urta madaniyatini shakllantirish orqali majburiy sug'urta turlarini keng qamrovli joriy etish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu ishda majburiy sug'urta bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bunda sug'urtaning ijtimoiy mohiyati va funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urtaning bunday funksiyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada to'laroq namoyon bo'ladi va u bir nechta ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin, bunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Sababi mamlakatda ijtimoiy institutlarning qay darajada rivojlanishi iqtisodiy vositalarni qo'llash imkoniyatlarini belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda u qo'yidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchisi, mamlakatning sug'urta tizimi orqali taqdim etiladigan ijtimoiy sug'urta mexanizmi. Bunda mamlakat aholini (aholining kam ta'minlangan, himoyaga muxtoj qatlamini) ijtimoiy himoya tizimi sifatida sug'urta mexanizmi orqali qamrab oladi.

Ikkinchidan sug'urta orqali iqtisodiy himoya tizimi orqali ularga iqtisodiy (pulli) himoya tizini taqdim etadi, ulardan foydalanish uchun zarar shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu fuqarolarning o'z mol-mulklari, sog'liqlari bilan mulkiy manfaatlarini samarali iqtisodiy vositalar orqali himoya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Sababi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ijtimoiy himoya mexanizmlari orqali yoppasiga hammani ham qamrab ola olmaydi, bunda uning moliyaviy jihatdan cheklanganligi asos bo'ladi. Olib borilgan tahlillar natijasida qo'yidagi fikr va xulosalar shakllantirildi, ya'ni majburiy sug'urta uchta asosiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1. Majburiy sug'urta jarayonida sug'urta munosabatlari sub'ektlari o'rtasida yaqin iqtisodiy munosabatlarning mavjudligi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi munosabatlar qonunchilik hujjatlarini bajarishda sug'urta shartnomasini tuzishda yuzaga keladi, unga ko'ra sug'urta kompaniyalari sug'urta xizmatlarini ko'rsatadilar va kompaniyaga bunday xizmat uchun sug'urta mukofotlarini to'lab berishadi. Kelishilgan sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan hodisalarning yuzaga kelishi va ma'lum ma'noda zarar yetkazilganda sug'urta kompaniyalari o'z mijozlari nomidan jabrlanuvchilar bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishishlari mumkin bo'ladi.

2. Sug'urta shartnomasini tuzishda tomonlar (sug'urtalanuvchilar va sug'urta kompaniyalari) tomonidan belgilanadigan muhim shartlar majmuasining mavjudligi.

Turli moliyalashtirish manbalarining mavjudligi (byudjet mablag'lari, sug'urtalanuvchilarning mukofotlari, byudjetdan tashqari moliyalashtirish fondlari).

Majburiy sug'urtani tasniflashning turli mezonlarini taqdim etilgan adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, mavjud turli yondashuvlarni tizimlashtirish natijasida faqat majburiy sug'urtaga tegishli bo'lganlarini ajratib olish imkonini berdi. Olib borilgan tahlillar natijasi shu narsa aniq bo'ldiki sug'urtaning ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning ikki turi mavjud: davlat byujetidan tashqari fondlaridan tashqari amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urta va sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan tijorat sug'urtasi.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida majburiy sug'urta tasnifi quyidagi mezonlar bo'yicha kengaytirildi:

- 1) Sug'urta turiga ko'ra: majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi va majburiy tijorat sug'urtasi;
- 2) Sug'urta fondini tashkil qilish shakligako'ra; ijtimoiy sug'urta fondlari va sug'urta kompaniyalarining sug'urta fondlari;
- 3) Sug'urta mahsulotlari turi bo'yicha: ommaviy sug'urta mahsulotlari, ayrim toifalar uchun sug'urta mahsulotlari va individual sug'urta mahsulotlari;
- 4) Davlat tomonidan majburiy ravishda sug'urtalanishi kerak bo'lgan sug'urtalanuvchilar toifalari bo'yicha; davlat xizmatchilari sug'urtasi (davlat xodimlari, ishchi ishlar, qutqaruvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqalar);
- 5) Belgilanadigan sug'urta tariflariga ko'ra: qat'iy belgilangan tariflar, suzuvchi tarif stavkalari, ortib boradigan yoki pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladigan tarif stavkalari.

Bizning xulosamizcha, majburiy sug'urta turining ko'lami va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari qo'yidagi tamoyillarga mos kelishi muhim hisoblanadi:

– Majburiy sug'urtani amalga oshirishning asosiy shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqqligi;

– Majburlovligi, ya'ni sug'urta qildiruvchi sug'urta qilishni xohlaydimi yo'qmi, uning xohshidan qat'iy nazar amalga oshirilishi;

– majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta kompaniyalari va boshqa sub'ektlarning belgilangan majburiyatining so'z siz bajarilishi;

salohiyatli jabrlanuvchilarning manfaatlarining ustunligi, ya'ni ularga yetkazil zarar sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilishi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi.

Olib borilgan emperik tahlillar natijasi shu narsa ayon bo'ldiki, qo'pchilik tadqiqotchilar sug'urtani iqtisodiy funksiyalari orqali tadqiq qilishadi va uni sug'urta hodisalari yuz berganda iqtisodiy himoya mexanizmi sifatida talqin etishadi. Bunda ular sug'urta xizmatlarini taqdim etish natijasida ya'ni sug'urta mukofotlari sug'urta fondlari shakllanishi va hodisa yuz berganda esa shu fondlardan zararlarni to'lab berish mexanizmi sifatida qaraydilar. Shuningdek bunday tartibda olib borilgan tadqiqotlar sug'urtani mamlakat byudjetiga tushadigan og'irlikni optimal darajada kamaytira olish nuqtai nazaridan qarashadi. Bu albatta iqtisodiy jihatdan to'g'ri va buni biz inkor etmaymiz balki uning bu yerdagi iqtisodiy va investitsiya funksiyalari ham faol ishtirok etishini takidlaymiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki sug'urta nafaqt iqtisodiy himoya balki o'zining investitsiya, ya'ni bo'sh pul mablag'larini yig'ish orqali iqtisodiyotni resurslar bilan ta'minlashini ham keltirib o'tamiz.

Yuqoridagilardan shuni yodda tutishimiz kerakki, sug'urtaning iqtisodiy funksiyalari uning ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalari bilan bevosita bog'liq va ular yaxlitlikda sug'urta tizimini tashkil etadi. Shuningdek bu sug'urtaning yagona ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishini aks ettiradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jismoniy va yuridik shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobiga shakllangan sug'urta fondlaridan ularni himoyalash maqsadida foydalanish jarayonlarida aks ettiriladi.

Majburiy davlat shaxsiy sug'urta turlari tizimi tahlili

SUG'URTA TURI	SUG'URTA SUMMASI	SUG'URTA MUKOFOTI	Huquqiy asos	
			Amalda	Bo'lish kerak
Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat shaxsiy sug'urtasi	bazaviy hisoblash miqdorining 36 baravari	bazaviy hisoblash miqdorning 20 foizi miqdori	O' ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI QARORI	O' ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TEGISHLI QONUNI
Soliq organlari xodimlarining hayotini sug'urtalash	bazaviy hisoblash miqdorining 80 baravari	bazaviy hisoblash miqdorning 20 foizi miqdori		
Sud ekspertlari hayoti va sog'lig'i sug'urtasi	bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida	sug'urta qilingan shaxslar sonini sug'urta summasiga va 3,4 foiz miqdorida belgilangan sug'urta tarifiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi		
Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchilarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash	bazaviy hisoblash miqdorining 84 baravari miqdorida	bazaviy hisoblash miqdorning 20 foizi miqdori		
Sudyalarning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash	sudyaning ellik oylik ish haqiga teng summada	sug'urta qilingan shaxslar sonini sug'urta summasiga va 0,238 foiz miqdorida belgilangan sug'urta tarifiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi		

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sug'urtaning ijtimoiy funksiyasi xujalik yurituvchi sub'ektlar va aholi uchun turli ta'sir ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Baxtsiz hodisalardan sug'urtadash, tibbiy sug'urta, pensiya sug'urtasi va boshqa sug'urta turlari orqali sug'urta kompaniyalari sug'urtalanuvchilarga yetkazilgan zararlarni to'lab berishadi va bular orqali sug'urtalanuvchilar o'zlarining sog'liqlarini tiklashi, tibbiy xaajatlarini to'lashi, davolanishi, qarilikda qo'shimcha pensiya olishi, jamg'armalar shakllantirishi, mehnat qobiliyatlarini tiklashi mumkin bo'ladi. shuningdek, sug'urtalanuvchilar boshqa mol-mulk sug'urta turlaridan foydalanishi orqali o'zlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishida (mol-mulklarning nobud bo'lishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi) samarali foydalanishlari mumkin.

Oxirgi yillarda aholi sonining oshishi, davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarining kamayishi sug'urtaning jamg'arib boriladigan sug'urta turlariga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Bunga misol sifatida pensiya sug'urtasi, renta sug'urtasi va boshqalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Turli mamlakatlarda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar ularning jozibadorligini oshirdi.

Bunda sugʻurtaning ijtimoiy funksiyasi samarali iqtisodiy vosita sifatida namoyon boʻlmoqda. Bundan tashqari sugʻurta sohasi ham tijorat sohasi boʻlgani kabi unda ham ishlovchi xodimlar mavjud, yaʼni sugʻurta sohasi rivojlangani sari unda band boʻlganlarning soni oshib boradi va u qaysidir maʼnoda fuqarolarni ish bilan taʼminlaydi.

Yuqoridagi funksiyalardan tashqari oldini olish (ogohlantirish) funksiyasi ham mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sugʻurtaning bu funksiyasining roli ham oshib boradi, ayrim hollarda u sugʻurta fondlarini barqaror saqlashda muhim rol uynaydi. Sababi zarar oqibatlarini bartaraf etishdan koʻra uni oldini olish anchagina samarali hisoblanadi. Katta miqdordagi zararlarni oldini olish hozirgi iqtisodiyot sharoitida eng samarali vosita hisoblanadi. Bunday sharoitlarda sugʻurt kompaniyasi bilan sugʻurta shartnomasini imzolagan sugʻurtalanuvchilar ham oʻz mol-mulkleri va boshqa holatlar boʻyicha ham birgalikda javobgar boʻlishadi. Bularning javobgarligini doimiy ravishda yodda tutishni talab qiladi va ular bunday holatlarni keltirib chiqaradigan faoliyatlardan oʻzlarini chetda tutadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sugʻurta tizimi mamlakatning gullab yashnashida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda sugʻurta tizimisiz iqtisodiyot yoki davlatning mavjud boʻlishi juda qiyin, sababi bunday himoya tizimi byudjetga tushadigan xarajatlarni kamaytirishning samarali tizimi hisoblanadi. Sugʻurta tizimini rivojlantirish nafaqat aholini ijtimoiy, iqtisodiy himoya qilish, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy sugʻurta tizimini rivojlantirishda ixtiyoriy va majburiy sugʻurta turlarini amalga oshirilishini birdek ragʻbatlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat tomonidan sugʻurtani farqi yoʻq qanday tartibda olib borish yoki rivojlantirish, bunda eng asosiysi bu majburiy sugʻurta rivojlanmagan tizimda ixtiyoriy sugʻurta ham rivojlanmasligini unitmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan kelib chiqqan holda bizningcha majburiy va ixtiyoriy sugʻurtani rivojlantirishda qoʻyidagi yoʻnalishlarda faoliyat olib borish talab etiladi:

Birinchidan, normativ-huquqiy bazani shakllantirish:

- Majburiy va ixtiyoriy sugʻurtani tartibga soluvchi normativ hujjatlar tizimini takomillashtirish;

- jahon sugʻurta munosabatlarida milliy sugʻurta tizimi rivojlanishi va integratsiyasini taʼminlash;

- sugʻurta bozorini tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirib borish;

- sohada sodir boʻlayotgan mintaqaviy va jahon tendensiyalarini hisobga oladigan huquqiy bazani shakllantirish;

- sugʻurta bozorida zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda majburiy sugʻurtaning yangi turlarining huquqiy asoslarini yaratib borish.

Ikkinchidan, bozorning institutsional asoslarini shakllantirish;

- bozor infratuzilmasini yaratish;

- bozorni tartib solishda mustaqil institutlarni tashkil etish (uyushma va birlashmalarni);

- halqaro standartlar asosida vositachilar institutini tashkil etish, ular faoliyatni litsenziyalash, kasbiy sertifikatlar berish amaliyotini joriy etish;

- faoliyatning statistik bazasini tashkil etish va doimiy shakllantirib borish;

- soha uchun dolzarb boʻlgan kasb egalarini, kadrlarni tayyorlash;

- sohasini boshqarish tizimini isloh qilish. Bunda boshqarishning zamonaviy vositalarini keng joriy etish;

Uchinchidan, soliq solish tizimlarini samarali tashkil etish. Bunda nafaqat sugʻurta kompaniyalari blki sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarini sugʻurta mahsulotini sotib olishga undaydigan normalarni kiritish. Jumladan:

- soliq toʻlovchilarga sugʻurtadan olingan daromadlarda imtiyozlar berish;

- jamgʻarib boriladigan sugʻurta turlaridan (renta, pensiya sugʻurtasi) soliq hisoblash mexanizmlarini soddalashtirish, sugʻurtalanuvchilarga yengillik berish;

- ixtiyoriy va majburiy sugʻurtaga yoʻnaltirilgan sugʻurta mukofotlarini soliqdan ozod qilish mexanizmlarini joriy etish;

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida majburiy sug'urta sohasini rivojlantirish davlat bosh isloatchi sifatida maydonga chiqishi muhim sanaladi, bu islohatlar qaysi yo'nalishda olib borilishida esa sug'urta bozori sub'ektlari esa islohatlarning asosiy ijrochilariga aylanishadi. Sababi sug'urta va davlat o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning eng muhim vositalaridan biri bu majburiy sug'urta amalga oshirishning qonunchilikda belgilanishi.

Bunday sharoitda va yig'ilib qolgan muammolarni hal qilish uchun sug'urta bozori professional ishtirokchilarining o'zlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq vazifalarni bajarishlari muhim sanaladi, ya'ni davlat va aholi manfaatlariga maksimal darajada mos keladigan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish hamda joriy etish va mavjudlarini takomillashtirish; aholining sug'urta munosabatlaridan xabardorligini oshirish va sug'urta axborotlarining ochiqligini ta'minlash; sug'urta bozori vositachilari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; sug'urta turlarini asl mohiyati va iqtisodiy himoyaning optimal variati ekanligini aks ettiruvchi targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

Majburiy sug'urta turlarining davlat shaxsiy sug'urtasida ko'plab muammolar yig'ilib qolgani hech kimga sir emas, qolaversa ularni onlayn tarzda ko'rsatish tizimini joriy etish ham o'z navbatida bunday muammolar salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Amalda ularning mexanizmlari iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini eskirib qolganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rindan ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat shaxsiy sug'urtasi mexanizmi [1].

Cug'urta turi	Me'yoriy asos	
Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat shaxsiy sug'urtasi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"gi 1994 yil 16 iyuldagi 365-sonli Qarori	
Sug'urtalash shartlari		
Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy shaxsiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta puli ishlab chiqarish faoliyatini bajarish chog'ida halok bo'lish {vafot etish) hodisasi yuz bergan taqdirda bazaviy hisoblash miqdorining 36 baravari (11880000 so'm)	Sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz hodisa munosabati bilan nogironlik belgilanganda: I guruh nogironligi bo'lgan shaxsga – sug'urta pulining 50 foizi; II guruh nogironligi bo'lgan shaxsga – sug'urta pulining 30 foizi; III guruh nogironligi bo'lgan shaxsga – sug'urta pulining 20 foizi to'lanadi.	Bir yilda bir marta to'lanadigan sug'urta to'lovi amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi miqdorida (66000 so'm)

Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat shaxsiy sug'urtasi 1994 yilda joriy etilgan. U bo'yicha sug'urta summasi ayni damda 11 880 000 so'mni tashkil etadi. Sug'urta mukofoti esa 66 000 so'm. Bu iqtisodiy jihatdan hozirgi kunda samarasiz tizim sifatida o'zini isbotlab kelmoqda.

Keyingi davlat shaxsiy sug'urta turi bu soliq organlari xodimlarining hayotini sug'urtalash tizimi hisoblanadi.

Soliq organlari xodimlarining hayotini sug‘urtalash mexanizmi [2].

Sug‘urta turi	Me‘yoriy asos	
Soliq organlari xodimlarining hayotini sug‘urtalash	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta summalari va sug‘urta tariflari miqdorlari to‘g‘risida”gi 1994 yil 30 dekabrda 631-sonli Qarori	
Sug‘urtalash shartlari		
Soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta summasi to‘lov kunida qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 80 baravarini tashkil etadi. (26400000 so‘m)	Sug‘urta qilingan shaxsga baxtsiz hodisa munosabati bilan nogironlik belgilanganda: I guruh nogironligi bo‘lgan shaxsga – sug‘urta pulining 75 foizi; II guruh nogironligi bo‘lgan shaxsga – sug‘urta pulining 50 foizi; III guruh nogironligi bo‘lgan shaxsga – sug‘urta pulining 30 foizi to‘lanadi. Og‘ir, ammo nogironlikka olib kelmaydigan shikastlanganda – umumiy sug‘urta summasining 20% va engil shikastlanganda – 10%.	Sug‘urta mukofoti Davlat soliq qo‘mitasi (sug‘urta qildiruvchi) tomonidan vakil qilingan sug‘urtalovchiga sug‘urta qilinishi kerak bo‘lgan sug‘urta qildiruvchining har bir xodimiga to‘lash paytida amal qilgan bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi miqdorida (66000 so‘m)

Soliq xodimlarini hayotini majburiy sug‘urtalash tizimi ham 1994 yilda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan amalga oshirilib kelinadi. Bunda bir xodim uchun sug‘urta summasi amalda bo‘lgan mehnatga haq to‘lashning bazaviy hisoblash miqdorining 80 baravarini tashkil etadi, ya’ni 26 400 000 so‘m. Sug‘urta mukofotlari mos ravishda mehnatga haq to‘lashning bazaviy miqdoridan kelib chiqqan holda 20 foiz miqdorida (66000 so‘m) o‘rnatilgan. Shuningdek xodimlarning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish paytida ular hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlar miqdorini aniqlash bo‘yicha sug‘urta qoplamalarini to‘lash (zarar miqdori) jadvali keltirilgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasidan shuni ko‘rishimiz mumkin moliyaviy jihatdan soliq xodimlarining hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash tizimi bir necha yillardan beri moliyaviy jihatdan samarasiz tizim sifatida ishlab kelmoqda.

Navbatdagi shaxsiy davlat sug‘urtasi bu sud ekspertlari hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash tizimi. Mazkur sug‘urta turi sug‘urtalanuvchilarning maxsus xususiyatlaridan kelib chiqqan holda majburiy shaxsiy sug‘urtasiga olingan. Ularning o‘z kasbiy faoliyatlarini o‘ta xavfli sharoitlarda olib boriladi. Undan tashqari kasb egallash bo‘yicha talablarning yuqoriligi ularning majburiyatini belgilab beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchi navbatda majburiy sug‘urtani joriy etishdan asosiy maqsad byudjetning xarajatlar qismiga tushadigan og‘irlikni shakllanadigan sug‘urta zahiralari hisobidan kamaytirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun yuqorida keltirilgan mezonlardan foydalangan holda majburiy sug‘urta tizimining samarali ishlashi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, shuningdek sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish zarur.

Biroq ushbu chora-tadbirlar sug‘urta faoliyatining mazkur sohasida monopoliya shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bundan tashqari, majburiy sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydigan qonunchilik bazasini takomillashtirish, shuningdek majburiy sug‘urtani tartibga soluvchi respublika qonunlarini qabul qilish lozim.

Majburiy sug'urta turlarini rivojlantirishda, avvalambor, mavjudlarini saqlab qolgan holda ularni takomillashtirish zarur. Darhaqiqat, O'zbekistondagi mavjud kamchiliklarga qaramay bugungi kunda majburiy sug'urtaning samarali tizimi rivojlanib kelmoqda, sug'urta infratuzilmasi shakllangan va majburiy sug'urta turlarini amalga oshirishning o'ziga xos tajribasi to'plangan.

Majburiy sug'urtani rivojlantirish uchun qo'yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvfiq:

– Aholi manfaatlariga maksimal darajada javab beradigan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish.

– aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi oshishiga olib keladigan maksimal darajada oshkorolik siyosatini olib borish;

– majburiy davlat sug'urtasi ustidan har tomonlama nazoratni ta'minlash, bunda nazorat ham ichki va tashqi bo'lishi kerak;

– qonunchilik bazasini takomillashtirish (soliq imtiyozlarini berish, soddalashtirish), sug'urtaning ustuvor turlarini hisobga olgan holda rivojlantirish;

– majburiy sug'urtalashning axborot almashish kanallarini takomillashtirish, sug'urtalanuvchilar va jabrlanganlarning yagona bazasini yaratish, bu sug'urta kompaniyalari o'rtasida ma'lumot almashishni tezlashtiradi va firibgarlik holatlarini kuzatish imkonini beradi;

Mavjud va yangi ishlab chiqarilayotgan sug'urta mahsulotlarini rekalama qilish ishlarini yaxshilash, sug'urta dasturlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni keng targ'ib qilib borish.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi” 1996 y. (Yangi taxrir. 2019 yil 24 may № 03/19/542/317). www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta summalari va sug‘urta tariflari miqdorlari to‘g‘risida” gi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2022 y., 09/22/471/0767-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sudyalarning hayoti va sog‘lig‘ini davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.
4. Polborn, M. (1998) ‘Mandatory insurance and the judgement-proof problem’, International Review of Law and Economics 18(2): 141–146.
5. Райхер В.К. Общественно-исторические типы страхованиуа. – М.–Л.: АН СССР, 1947. 5-6 стр.
6. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: - 2019. – 75 b.
7. Белкин О.А., Кулагин Д.А. Методы воздействия государства на рыночные цены // Актуальные вопросы экономических наук. Вып. № 9-1. 2009. С. 17-21.
8. <https://www.mf.uz>
9. https://www.cbr.ru/insurance/reporting_stat/
10. <https://www.minfin.gov.by>